


TASDIQLAYMAN



**2024-yil davomida "O'zog'irsanoatloyiha" instituti AJda monopoliyaga qarshi
komplayens tizimi faoliyatiga oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan**


HISOBOT

T/r	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
1	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2024-yilga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining 2024-yil 5-iyuldagi 2020/02-21/1-son ko'rsatmasiga binoan Jamiyatning 10.07.2024 yildagi 159-KB-son buyrug'i bilan monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish, uning ishlashini ta'minlash hamda monitoring qilish vazifalari bo'yicha mas'ul xodim tayinlangan hamda Jamiyat tizimida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan va tasdiqlangan
2	Tashkilot faoliyatiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplayens bo'linmasi (mas'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi.	Mas'ul xodimlarga zaruriy ko'rsatmalar berilgan. 2023 yil davomida "O'zog'irsanoatloyiha" instituti aksiyadorlik jamiyatining faoliyatiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalari ishlab chiqilmagan. Bugungi kunda shu kabi ishlab chiqiladigan hujjatlarni ichki monopoliyaga qarshi komplayens bo'linmasi bilan majburiy tartibda kelishish yo'riqnomasi ishlab chiqilmoqda
3	Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi.	"O'zog'irsanoatloyiha" instituti aksiyadorlik jamiyatining saytida hamda telegram-kanalida tashkil etilgan ishonch telefoni hamda bot orqali manfaatlar to'knashuvi holatlari yuzasidan murojaat qilish imkoni mavjudligi haqida axborot joylashtirilgan.
4	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi.	Mutasaddi xodimlarga raqobat to'g'risida qonunchilik hujjatlariga qat'iy rioya qilinishi lozimligi tushuntirilgan.

5	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo'yicha choralar ko'rilganligi.	2023 yilda yordamchi loyiha tashkilotini tanlash maqsadida o'tkazilgan tanlovlar O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish ko'mitasining Toshkent shahar hududiy boshqarmasi tomonidan 2024 yilda o'tkazilgan monitoring natijasi bo'yicha tanlovda ishtirok etish talablarida ayrim baholash mezonlari noaniq bo'lganligi sababli, boshqarma tomonidan "O'zog'irsanoatloyiha" institutining Tanlov komissiyasi a'zolariga jarima solingan. Shu bilan birga tanlov ishtirokchilarini baholash mezonlari aniqlashtirilgan
6	Tashkilot faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo'linganligi.	Respublikada 2000 tadan ortiq litsenziyalangan loyiha tashkilotlari mavjud. Shu qatorda, "O'zog'irsanoatloyiha" instituti aksiyadorlik jamiyati qurilish sohasida loyihalashtirish, inshootlarni instrumental-texnik ko'rigidan o'tkazish xizmatlarini ko'rsatadi va uning faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalar va xavflar aniqlashtirilmoqda. Natijasi bo'yicha tasniflar asosida darajalarga bo'linishi nazarda tutilgan.
7	Tashkilot faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalari o'rganilganligi, bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.	2023 yil davomida ishlab chiqilgan "O'zog'irsanoatloyiha" instituti aksiyadorlik jamiyati faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar belgilangan tartibda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan
8	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish zarurati yuzaga kelmagan.
9	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi.	Joriy yilning sentabr oyida "O'zog'irsanoatloyiha" instituti aksiyadorlik jamiyatining 3 nafar mas'ul xodimi O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish ko'mitasi Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi tomonidan tashkil etilgan "Davlat organlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini raqobat qonunchiligi talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarida tahsil olgan.

10	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o'tkazilganligi.	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o'tkazish 2025 yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan
11	Tashkilot rahbari, ularning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.	O'zog'irsanoatloyiha" instituti aksiyadorlik jamiyatining xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi komplaens tizimi faoliyati yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining "O'zbekiston Bunyodkori" gazetasida maqola chiqarish 2025 yil I-choragida amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

**Moliyaviy-iqtisodiy masalalar
boy'icha maslahatchi**



L.Sharapov